XALQ DEPUTATLARI YANGIYER SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

121000, Yangiyer shahar Yangi asr ko'chasi, telefon: 350-10-76

2023 - yil 27 - aprel VI-70-68-9-132-K/23 Yangiyer shahar hokimligi

Yangiyer shahridagi nomlari ko‘rsatilmagan ko‘chalarga nom berish to‘g‘risida.

“Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 4 apreldagi 15-00709-sonli xulosasi va shahar hokimligining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 4 apreldagi 15-00709-sonli xulosasi ga muvofiq shahar hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish, ularning nomlarini o‘zgartirish hamda yangi ko‘chalarga nom berish to‘g‘risidagi shahar hokimi o‘rinbosari J.Egamberdiyevning 11-apreldagi 04-19-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 4 apreldagi 15-00709-sonli xulosasi ga muvofiq shahar hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish, ularning nomlarini o‘zgartirish hamda yangi ko‘chalarga nom berish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

3. Yangiyer shahrida nomlari ko‘rsatilmagan ko‘chalarning ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Yangiyer shahar statistika bo‘limi (N.Xo‘janboyev), shahar qurilish bo‘limi (N.Abdurazzoqov), shahar hokimligi bilan birgalikda:

nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarni, shuningdek yangidan nomlangan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli

o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

5. Yangiyer shahar ichki ishlar bo‘limi (B.Xudaybergenov):

yangi nom berilgan ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

6. Yangiyer shahar qurilish bo‘limi (N.Abdurazzoqov):

hududlarda yangi nomlangan va nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarini yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma–bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror shahar “Yangiyer hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror shahar “Yangiyer hayoti” gazetasida e’lon qilingan kundan boshlab rasman kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining ijtimoiy-madaniy rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (Sh.Qurbonboyeva) va shahar hokimining o‘rinbosari (J.Egamberdiyev) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **O.Nosirov**

Xalq deputatlari Yangiyer shahar
Kengashining
2023 yil 27 apreldagi
VI-70-68-9-132-K/23-son qaroriga
1-ilova

Yangiyer shahrida nomlari ko‘rsatilmagan ko‘chalarning ro‘yxat.

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektlarning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi
1	Ko‘cha	Binokor MFY	Nomsiz - 2	Ma’naviyat
2	Ko‘cha	Z.M.Bobur MFY	Nomsiz - 1	Afsona
3	Ko‘cha	Davlatobod MFY	Nomsiz - 1	Istiqbol
4	Ko‘cha	Ma’rifat MFY	Nomsiz - 1	Kattabog‘
5	Ko‘cha	Ma’rifat MFY	Nomsiz - 2	Porloq
6	Ko‘cha	T.Malik MFY	Nomsiz - 3	Oltin asr
7	Ko‘cha	T.Malik MFY	Nomsiz - 5	Naqqosh
8	Ko‘cha	T.Malik MFY	Nomsiz - 7	Qalqon